

GABRIEL GARSIA MARKES IJODIGA BAG‘ISHLANGAN XORIJIY ILMIY TADQIQOTLARI XUSUSIDA

Nematillayev Akramjon G‘ofurjon o‘g‘li,

NamDCHTI tadqiqotchisi

University of Business and Science oliy ta‘limining

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

O‘zbekiston, Namangan viloyati

E-mail: nematillayevakramjon4@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18168591>

Annotatsiya: Ushbu maqola Gabriel Garsia Markes ijodiga bag‘ishlangan xorijiy ilmiy tadqiqotlarni tahlil qiladi. Tadqiqotda yozuvchining “Lotin Amerika Boomi” adabiy harakatidagi o‘rni va uning jahon adabiyotiga qo‘shgan hissasi ko‘rsatilgan. Maqolada Markesning ijodiy merosiga bag‘ishlangan ko‘plab PhD dissertatsiyalari sarhisobga olinib, ularning tematik yo‘nalishlari tasniflanadi. Asosiy tadqiqot yo‘nalishlari orasida vaqt va xotira konsepsiyalari, psixoanalitik va arxetipik yondashuvlar, siyosiy-ijtimoiy kontekst, estetik xususiyatlar hamda narrativ strategiyalar ajratilgan. Maqolada shuningdek, mavjud tadqiqotlardagi ilmiy bo‘shliqlar, xususan lingvopoetik tahlilning etishmasligi ko‘rsatilgan va keyingi izlanishlar uchun istiqbollar belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: Lotin Amerika Boomi, sehrli realizm, xorijiy tadqiqotlar, vaqt va xotira, psixoanalitik yondashuv, arxetipik tanqid, adabiy meros, postkolonial adabiyot.

Abstract: This article analyzes foreign scholarly research dedicated to the works of Gabriel García Márquez. The study examines the writer's role in the “Latin American Boom” literary movement and his contribution to world literature. The article reviews numerous PhD dissertations devoted to Márquez's creative legacy and classifies their thematic directions. Key research areas include concepts of time and memory, psychoanalytic and archetypal approaches, socio-political context, aesthetic features, and narrative strategies. The article also identifies scholarly gaps in existing research, particularly the lack of linguopoetic analysis, and outlines prospects for future investigations.

Keywords: Latin American Boom, magical realism, foreign research, time and memory, psychoanalytic approach, archetypal criticism, literary heritage, postcolonial literature.

Аннотация: В статье анализируются зарубежные научные исследования, посвящённые творчеству Габриэля Гарсиа Маркеса. В статье рассматривается роль писателя в литературном движении «латиноамериканский бум» и его вклад в мировую литературу. В статье рассматривается множество докторских диссертаций, посвящённых творческому наследию Маркеса, и классифицируются их тематические направления. Ключевые области исследований включают концепции времени и памяти, психоаналитический и архетипический подходы, социально-политический контекст, эстетические особенности и нарративные стратегии. В статье также выявляются научные пробелы в существующих исследованиях, в частности, отсутствие лингвопоэтического анализа, и намечаются перспективы будущих исследований.

Ключевые слова: латиноамериканский бум, магический реализм, зарубежные исследования, время и память, психоаналитический подход, архетипическая критика, литературное наследие, постколониальная литература.

Kirish. Gabriel Garsia Markes (1927-2014) - kolumbiyalik yozuvchi, jurnalist va 1982-yil Nobel adabiyot mukofoti sovrindori bo‘lib, XX asrning eng nufuzli adiblaridan biri hisoblanadi. 1927-yilda Kolumbiyaning Arakataka shahrida tug‘ilgan u, dastlab huquq ta‘limini olgan bo‘lsa-da, keyinchalik jurnalistikaga yo‘nalgan va turli gazetalarda muxbir

sifatida faoliyat yuritgan. Markes “sehrli realism” yo‘nalishining asoschilaridan biri bo‘lib, fantastik va real voqealarni tabiiy ravishda birlashtirib, Lotin Amerika tarixiy va madaniy an‘analarini aks ettirgan noyob uslubga ega. Uning eng mashhur asari “Yolg‘izlikning yuz yilligi” (1967) romani “Lotin Amerika Boomi” adabiy harakatining ramziy asariga aylanib, jahon adabiyotiga Lotin Amerika madaniyatini tanitirish va keyingi avlod yozuvchilariga yo‘l ko‘rsatishda muhim rol o‘ynagan. “Vabo davrida sevgi”, “E‘lon qilingan o‘lim xronikasi”, “Patriarxning kuzgi fasli” kabi asarlari ham xalqaro e‘tirofga sazovor bo‘lgan Márquez 2014-yilda Meksikada vafot etgan, ammo uning ijodiy merosi bugungi kunda ham dunyo adabiyotida katta ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Gabriel Garsia Markesning ijodi, ayniqsa “Yolg‘izlikning yuz yilligi” (Cien años de soledad, 1967) romani, 1960–1970-yillarda yuzaga kelgan “Lotin Amerikasi Boomi” adabiy harakatining asosiy drayveri sifatida maydonga chiqdi. Ushbu davrda Lotin Amerikasi adabiyoti global miqyosda misli ko‘rilmagan mashhurlikka erishdi va Julio Cortazar, Mario Vargas Llosa, Carlos Fuentes kabi yozuvchilarni xalqaro maydonga olib chiqdi. Markesning muvaffaqiyati Lotin Amerikasi yozuvchilarining milliy, folkloriy va madaniy qadriyatlarini global o‘quvchilar uchun dolzarb qilib ko‘rsatdi hamda G‘arbiy adabiyotda mavjud bo‘lgan “eksotik” qarashlarni inkor qildi. “Boom” davri nafaqat yangi adabiy sezgirlikni joriy etdi, balki Lotin Amerikasi jamiyati va madaniyatiga nisbatan qadimdan mavjud bo‘lgan stereotiplarni ham rad etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy-tahliliy va qiyosiy metodlar qo‘llanib, Gabriel Garsia Markes ijodiga bag‘ishlangan. Shuningdek, tematik tasniflash, kontekstual va intertekstual yondashuvlar orqali asosiy ilmiy yo‘nalishlar aniqlanib, mavjud tadqiqotlardagi metodologik va nazariy bo‘shliqlar umumlashtirish va xulosalash metodlari yordamida belgilandi.

Tahlil va natijalar. Markesning ta‘siri “Boom” dan tashqari davrlarda ham keng qamrovli bo‘lib, uning stilistik innovatsiyalari va mavzu doiralari keyingi avlod yozuvchilariga ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi. U yaratgan sehrli realizm, murakkab tarixiy va shaxsiy voqealarni epik ko‘lamda birlashtirish hamda narrativ ovozdagi yangiliklar jahon adabiyotida yangi yo‘nalishlarga yo‘l ochdi. Uning ta‘sirini ko‘plab zamonaviy yozuvchilarda Salman Rushdi, Toni Morrison, Isabel Allende, Haruki Murakami kabi ijodkorlarda ham kuzatish mumkin.[1]. Xususan, nolinear vaqt konsepsiyasi, mif va folklordan foydalanish hamda tarix va shaxsiy taqdirning qorishib ketishi bugungi kunda ham adabiyotning yetakchi tamoyillaridan biridir.[2]

Markeszning adabiy merosi uni nafaqat Lotin Amerikasi adabiyotining ramziy figuralaridan biriga, balki jahon adabiy jarayonida katalizator bo‘lgan buyuk yozuvchiga aylantirdi. Uning asarlari hanuzgacha adabiyotshunoslikda turli metodologik yondashuvlar orqali o‘rganilmoqda va yangi badiiy izlanishlarga turtki bo‘lib xizmat qilmoqda.

Gabriel Garsia Marques ijodi yuzasidan olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar uning romanlariga bag‘ishlangan ko‘plab PhD dissertatsiyalari miqdorida ham yaqqol ko‘rinadi. Bu ishlar yozuvchining asarlarini talqin etishda qo‘llanilgan turfa yondashuvlarni va ularning ilmiy qamrovini ochib beradi.

Ko‘pgina dissertatsiyalar Marques romanlarining tematik va talqin qirralariga e‘tibor qaratib, vaqt, xotira, taqdir va yolg‘izlik kabi asosiy tushunchalarni tahlil qiladi. Vaqt va taqdir o‘rtasidagi munosabat eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biridir. Masalan, A.D.Avdeyevning *Creating Eternity: The Coexistence of Time in One Hundred Years of Solitude* (2025) nomli dissertatsiyasi romandagi vaqtning paradoksal qo‘shqo‘llab ifodalanishini tahlil qiladi hamda xotira, meros va yolg‘izlikning takrorlanib turuvchi motivlarga aylanishini ko‘rsatadi.[3] Shuningdek, Gustavo Xavier Damaskeno tomonidan yozilgan *Postcolonial Espectres in One Hundred Years of Solitude: Bequest, Time and Solitude* (2012) tadqiqoti ushbu g‘oyalarni postkolonial kontekstda ko‘rib chiqib, yolg‘izlik, meros va tarixiy davomiylikning o‘zaro aloqalarini yoritadi.[4] Bu misollar Marquesning noan‘anaviy vaqt tuzilmalari turli nazariy yondashuvlarda qayta-qayta talqin etilayotganini ko‘rsatadi.

Gabriel Garsía Marques asarlarining psixologik va arxetipik qirralari ham alohida tadqiqotlarga sabab bo‘lgan. Masalan, Arline M.Vestmayerning *“Thanatos: The Hidden Side of Love”* (1996) nomli tadqiqotida Zigmund Freyding psixoanalitik nazariyasi, xususan “o‘lim instinkti” konsepsiyasi asosida *Yolg‘izlikning yuz yili* romanidagi murakkab motivatsiyalar va shaxsiy ziddiyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Osama Al-Sharanning *“Garcia Marquez’s One Hundred Years of Solitude: An Archetypal Study of the Novel”* tadqiqoti Northrop Frye arxetipik tanqidi nazariyasiga tayangan holda romandagi universal ramziy tuzilmalar va mifologik naqshlarni ochib beradi.[5]

Markes ijodidagi insoniy muhabbat va munosabatlarning murakkab tabiati ham ko‘plab doktorlik dissertatsiyalariga mavzu bo‘lgan. Jennifer Peresning *“Days of War, Nights of Love: Love & Politics in the Time of Cholera”* (2015) tadqiqotida *Xolera paytidagi sevgi* romanidagi romantik tasvir ortidagi ijtimoiy va siyosiy kontekstlar ochib beriladi. Bundan tashqari, Le Changning *“Uncovering the Veil in Cholera”* nomli tadqiqotida Marquesning *Vabo paytidagi sevgi* romani Somerset Maughamning *The Painted Veil* asari bilan qiyosiy tahlil qilinadi.[6]

Gabriel Garsia Marques ijodida Lotin Amerikasi siyosiy va ijtimoiy-tarixiy haqiqatlariga murojaat etish ustuvor mavzulardan biridir. Isabel C. Henaoning *“Magical Politicism: History and Identity in Gabriel García Márquez’s Fiction”* (2017) nomli tadqiqotida yozuvchining *Yolg‘izlikning yuz yili* romani hamda qisqa hikoyalarida sehrli realizm neokolonializm va imperializmga qarshi tanqidiy usul sifatida qo‘llangani tahlil qilinadi.[7] Shu yo‘nalishda David Mongor-Litsarrabengoaning *“Re-presenting Violence in the Works of Jorge Amado, Gabriel García Márquez, and Ariel Dorfman”* (2013) asarida

Markesning *La mala hora* (“In Evil Hour”) romanidagi zo‘ravonlik tasvirlari boshqa lotin amerikalik yozuvchilar bilan qiyosiy o‘rganiladi.[8] Bundan tashqari, Peter Antoni Nayssaning “*Dictators, Directives, Tyrannical Figures, and Cultural Discourse: Jorge Zalamea, Gabriel García Márquez, and Mario Vargas Llosa*” (2004) nomli tadqiqotida Markes ijodidagi zolim hukmdorlar obrazi va siyosiy diskurs boshqa mashhur lotin amerikalik mualliflar bilan solishtiriladi.[9] Umuman, mazkur tadqiqotlar Markesning qit‘a siyosiy hayotiga chuqur qiziqishini namoyon etadi.

Siyosiy va psixologik masalalardan tashqari, Markes ijodining estetik xususiyatlari ham doktorlik tadqiqotlariga sabab bo‘lgan. Masalan, Roger Kayening “*Gabriel García Márquez and the Aesthetics of Sensuality*” (2011) nomli dissertatsiyasida yozuvchining asarlaridagi sezgi detallarining tasviri va umumiy estetik prinsiplari o‘rganiladi. Muallif Markesning boy va ta’sirchan badiiy tili o‘quvchining barcha sezgilariga ta’sir etib, uning sehrlilik realizm dunyosiga xos betakror tajribani yuzaga keltirishini ko‘rsatadi.

Gabriel Garsia Markes romanlarining narrativ strategiyasi va struktural xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan alohida ilmiy maktab mavjud.

Markesning jurnalist sifatidagi tajribasi uning badiiy uslubiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Osama Al-Sharanning “*Gabriel García Márquez’s Chronicle of a Death Foretold: A Critical Reading According to Mikhail Bakhtin’s Concept of Polyphony*” (2022) nomli tadqiqotida E‘lon qilingan o‘lim xabari asaridagi narrativ ovoz va ko‘p ovozlilik (polyphony) Bakhtinning nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot yozuvchining jurnalistik aniqligi bilan turli nuqtai nazarlarni birlashtirish mahorati romanning o‘ziga xos strukturasi va haqiqat hamda umumiy mas’uliyat masalalariga murojaatini qanday ta’minlashini yoritib beradi.

Markes asarlarining tanqidiy taqdiri va umumiy merosi ham ilmiy izlanishlarga markaz bo‘lgan. Julieta Vitulloning “*One Hundred Years of Solitude Critical Reception: For Gabriel García Márquez and the History of Spanish America*” (2017) nomli dissertatsiyasi *Yolg‘izlikning yuz yili* asarining qanday qabul qilinganini va Lotin Amerikasi adabiyotida asosiy matn sifatida qanday kanonlashtirilganini tahlil qiladi. Muallif ushbu romanni o‘qishda ustuvor bo‘lgan bahs-munozaralar va mafkuraviy talqinlarni ko‘rib chiqib, uning adabiy jarayonga qo‘shgan hissasi va global adabiyot kanonidagi o‘rnini asoslab beradi[9].

Gabriel Garsia Markes ijodi ko‘pincha kengroq adabiy kontekstlarda ham o‘rganilib, uning asarlariga turli madaniy va mintaqaviy ta’sirlar aniqlanadi.

Markes ijodini to‘liq qamrab olgan ilk asosiy tadqiqotlardan biri Dennis Deforest Uestning “*Gabriel García Márquez: A Study of His Fiction*” (1972) nomli dissertatsiyasi bo‘lib, u yozuvchining barcha badiiy asarlariga ilmiy tahlil berib, keyingi adabiyotshunoslik izlanishlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, Denis Tereza Uillsning “*Lo Caribeño in the Work of Gabriel García Márquez*” (2008) nomli tadqiqotida yozuvchining romanlarida Karib mintaqasiga xos identitet va tematik motivlar tahlil qilinib, Markesning

o'ziga xos adabiy ovozi shakllantirgan mintaqaviy omillar ochib beriladi. Bu kabi izlanishlar yozuvchining adabiy olamini tushunishda nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Gabriel Garsia Markes ijodi bo'yicha olib borilgan PhD tadqiqotlari son va qamrov jihatidan nihoyatda kengdir. Ularning mavzu doirasi tematik, psixologik, sotsio-tarixiy va narrativ yondashuvlarni qamrab olgan holda, yozuvchining asarlarini turli burchaklardan yoritib kelmoqda. Shunga qaramay, mavjud adabiyotshunoslik tadqiqotlarida sezilarli ilmiy bo'shliq mavjud. Avvalgi izlanishlarda Markesning betakror uslubi, tilni boshqarishdagi o'ziga xos mahorati alohida e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning lingvopoetik jihatdan chuqur tahlili, ya'ni leksik, sintaktik va diskursiv darajadagi aniq tanlovlari qanday qilib estetik ta'sirlarni hosil qilishi masalasi ko'pincha yuzaki qoldirilgan.

Xulosa. Aksar tadqiqotchilar yozuvchining "lirik prozasi", "realizm va fantastikaning uyg'unlashuvi" yoki "yangi narrativ ovozi" haqida umumiy ta'riflar berish bilan cheklanib, bu ta'sirlarning til vositalari orqali qanday yuzaga kelishini tizimli ravishda ochib bermaydi. Masalan, *Yolg'izlikning yuz yilligi* romanida vaqtning tsiklik tuzilishi tematik jihatdan yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, aynan shu tuzilmani hosil qiluvchi til birliklari (takroriy leksik birliklar, anafora, zamon o'zgarishlari, sintaktik tuzilmalar) deyarli maxsus tadqiq etilmagan. Xuddi shuningdek, *Vabo davrida sevgi* romanida Florentino Arisaning "patologik muhabbati" uning xarakterining belgilovchi jihati sifatida izohlangan bo'lsa-da, bu hissiyotning shakllanishida lingvistik sharoitlar (giperbolik lug'at, modal fe'llar, bevosita va erkin bilvosita nutq orasidagi keskinlik) qanchalik rol o'ynashi hanuz yetarlicha lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganilmagan. Bu esa yozuvchi ijodi va asarlari poetikasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Rushdie, S. *Imaginary Homelands: Essays and Criticism 1981–1991*. London: Granta, 1991.
2. Allende, I. *La suma de los días*. Barcelona: Plaza & Janés, 2007.
3. Avdeyev, A.D. *Creating Eternity: The Coexistence of Time in One Hundred Years of Solitude*. PhD diss., 2025.
4. Damasceno, Gustavo Xavier. *Postcolonial Spectres in One Hundred Years of Solitude: Bequest, Time and Solitude*. PhD diss., 2012.
5. Westmeier, A. M. *Thanatos: The Hidden Side of Love*. PhD Dissertation. 1996.
6. Al-Shara, O. *Garcia Marquez's One Hundred Years of Solitude: An Archetypal Study of the Novel*. PhD Dissertation.
7. Perez, J. *Days of War, Nights of Love: Love & Politics in the Time of Cholera*. PhD Dissertation. 2015.
8. Chang, L. *Uncovering the Veil in Cholera*. Doctoral Research.
9. Henao, I. C. *Magical Politicism: History and Identity in Gabriel García Márquez's Fiction*. PhD Dissertation. 2017.
10. Mongor-Lizarrabengoa, D. *Re-presenting Violence in the Works of Jorge Amado, Gabriel García Márquez, and Ariel Dorfman*. PhD Dissertation. 2013.
11. Neissa, P. A. *Dictators, Directives, Tyrannical Figures, and Cultural Discourse*. PhD Dissertation. 2004.
12. Kaye, R. *Gabriel García Márquez and the Aesthetics of Sensuality*. PhD Dissertation. 2011.

13. Al-Shara, O. *Gabriel García Márquez's Chronicle of a Death Foretold: A Critical Reading According to Mikhail Bakhtin's Concept of Polyphony*. PhD Dissertation. 2022.
14. Vitullo, J. *One Hundred Years of Solitude Critical Reception: For Gabriel García Márquez and the History of Spanish America*. PhD Dissertation. 2017.
15. West, D. D. *Gabriel García Márquez: A Study of His Fiction*. PhD Dissertation. 1972.
16. Wills, D. T. *'Lo Caribeño' in the Work of Gabriel García Márquez*. PhD Dissertation. 2008.

